

M. LERMONTOVNING “BORODINO” SHE’RI TARJIMASIDA JANGCHI RUHIYATINING AKS ETISHI

Axmakov Dostonbek Xasanboy o‘g‘li

ToshDO‘TAU talabasi

E-mail: axmadovdostonbek01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mashhur shoir G‘afur G‘ulomning tarjimonlik mahorati rus shoiri Mixail Yuryevich Lermontovning “Borodino” she’ri tarjimasi misolida yoritib berilgan. Tarjima jarayonida mutarjim mahorati aks etgan ba’zi jihatlar tadqiq etilgan, tarjimon tomonidan yo‘l qo‘yilgan yutuq va kamchiliklar asliyat matni bilan solishtirish yo‘li orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mutarjim, uslub, individuallik, askar ruhiyati, jang tasviri, asliyat.

ABSTRACT

In this article, the translation skills of the famous poet Gafur Ghulam are highlighted on the example of the translation of the poem “Borodino” by the Russian poet Mikhail Yuryevich Lermontov. Some aspects that reflect the translator’s skill during the translation process have been studied.

Keywords: translator, style, individuality, soldier spirit, battle imagery, original.

Har bir haqiqiy shoir ijodida uning nomini mashhur qilgan durdonalar, shubhasiz, uchraydi. “Borodino” – rus shoiri Mixail Yuryevich Lermontovning ana shunday she’rlaridan biri. “Bu she’r Lermontovning, nihoyat, o‘z imzosi bilan bostirishga qaror qilgan dastlabki asari edi, – deb yozadi shoir ijodining tadqiqotchisi Irakliy Andronikov. – “Borodino”ni Pushkinning eng yaxshi she’rlari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin. Lermontov keksa artillerist nomidan sodda va oddiy so‘zlar bilan buyuk Borodino jangi haqida, rus jangchilarining vatanparvarligi va qahramonligi haqida hikoya qiladi va rus xalqining 1812-yil voqealariga qarashini bayon qilib beradi. Lermontovgacha hatto Pushkin ham urush haqida shunday yoza olmagan edi” (Андроников, 1977: 16).

Lermontovning o‘zbek tilida bosilgan ikki jildlik asarlar to‘plami (Lermontov, 1955: 540) ga G‘afur G‘ulomning ikkitagina tarjimasi kiritilgan. Biri – “**Borodino**” she’ri (Lermontov, 1955:17), ikkinchisi – “**Hoji Abrek**” poemasi (Lermontov, 1955: 56). Xo‘sish, nega shunday katta shoir va tarjimon Lermontovning bor-yo‘g‘i ikkita asarini tarjima qilgan? Bizningcha, otaxon shoirimiz Lermontov ijodidan o‘z ruhiga

mos asarlarnigina tanlab o‘girgan. Holbuki, bu rus shoirining asarlari o‘zbek tiliga ko‘pchilik tarjimonlar tomonidan o‘girilgan, muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalar ham bisyor. Chunki bir muallif asarlarini guruh-guruh bo‘lib tarjima qilish nihoyatda qaltis masala. Bunda tarjima qilinayotgan ijodkorning uslubi yo‘qolish xavfi kuchli. Shu jihatdan ham G‘afur G‘ulomning o‘z ruhiga usluban yaqinligi bor she’rlarni tanlab o‘girganligi boshqa tarjimonlarimiz uchun alohida ibrat bo‘lishi kerak. Xo‘s, “Borodino” she’ri nimasi bilan tarjimon ruhiyati, sajiyasiga yaqin turadi?

G‘afur G‘ulom ijodidagi ritmik ohang salobatli, vazmin. Shu bilan birga uning ba’zi she’rlarida jo‘shqin, sher na’rasiga ohangdosh sadolar ham uchraydi. Xuddi shu ohang, ayniqsa, uning urush yillari yozilgan asarlarida yorqin jaranglaydi. Lermontovning “Borodino” she’ri G‘afur G‘ulomning Ikkinci Jahon urushi davrida bitilgan she’rlari ruhiyatiga hamohang keldi. Axir “Borodino”da ham 1812-yilgi urush qalamga olingandi-da!

Lermontov she’rida Amaki obrazi bor. Mana, uning nutqidan bir parcha:

– Да, были люди в наше время,
Не то, что нынешнее племя:
Богатыри – не вы!
Плохая им досталась доля:
Немногие вернулись с поля...
Не будь на то господня воля,
Не отдали б Москвы! (Лермонтов, 2015:4).

Tarjimasi:

– Ha, bizning zamonda mardlar bor edi,
Sizga o‘xshamasdi, shiddatkor edi.
Siz botir emassiz.
Ularning qismati bo‘lmishdi yomon,
Talay mardlar maydon aro berdi jon.
Bo‘lmasaydi taqdir amri beomon,
Ketmas edi Moskva, essiz! (Lermontov, 1955: 17).

Amaki obrazining so‘zlash tarzi o‘zbekchaga ham aynan ko‘chgan. Tarjimada ham cholning nutqidagi emotSIONALLIK, yosh avloddan ko‘ngli to‘imaslik kayfiyati bo‘rtib ko‘rinadi. Asliyatda Amaki o‘z davri odamlariga nisbatan **“sizlar botir emassiz, bizning zamonda odamlar botir edi”**, desa, o‘zbekchada tarjimon o‘sha

botirlarni sifatlab: “**Sizga o‘xshamasdi, shiddatkor edi**”, deb tarjima qiladi. Bu bilan Amaki nutqi o‘zbek tilida kuchaytiriladi, yanada shiddatliroq jaranglaydi.

Bunday kuchaytirish parchadagi beshinchi satrda ham ko‘zga tashlanadi: asliyatda jangdan juda ozchilik omon qaytgani aytilsa, o‘zbekchada jang maydonida talay odamlarning jon bergani ta’kidlanadi. Ko‘rinib turibdiki, kuchaytirishlar she’r mazmuniga putur yetkazmagan.

Mashhur tanqidchi V. G. Belinskiy mazkur she’rga shunday baho bergandi: “Bu fikr hozir yarim uyquda bo‘lgan faoliyatsiz avloddan shikoyat va shon-sharaf hamda ulug‘ ishlarga to‘la bo‘lgan buyuk o‘tmishga havasdir” (Белинский, 1974: 65). Xuddi shunday g‘urur, shunday tuyg‘u G‘afur G‘ulomning o‘zida ham yo‘q emas edi:

Biz uzoq indamay chekinar edik,
Alam qilar edi, jang kutar edik.
Chollar po‘ng‘illar birdan:
“Nima bu, shu yerda o‘tadimi qish?
Komandirlarimiz bajarolmas ish
Yovlarning mundirin kerakdir yirtish
Rusning nayzasi bilan” (Lermontov, 1955: 17).

Ikkinchi jahon urushi yillarini bir eslasak, she’rdagi bu manzara orqali go‘yo Lermontov shu urushni tasvirlagandek tuyuladi. G‘afur G‘ulom ham jangning chekinish alamlarini, urush azoblarini ko‘rgan shoir edi (Akbarov, 1968: 32). Demak, asliyatda tilga olingan voqealar tarjimonga begona emas. She’r qahramoni Amaki obrazining alam bilan so‘zlashini, undagi iztirobli ruhni tarjimon dildan idrok eta olgan. Shu idrok natijasi o‘laroq qayta yaratilgan maneralar aslidagi maromda jaranglaydi. Bu parchada keksalarning komandirlardan norozi kayfiyatini ifodalovchi “**ворчали старики**” iborasini “**po‘ng‘illar chollar**” yoki “**Что мы, на зимние квартиры?**” satrini “**Nima bu, shu yerda o‘tadimi qish?**” deb ag‘darganki, bular asliyatning to‘la tarovatini beradi.

She’rda banddan bandga o‘tilgani sari jangchilarning holatidagi tadrijiylik ham aks etib boradi: jangchilarning dushman ustidan qilinajak g‘alabaga ishonchi kuchayganligi, ularning bo‘lajak jangga shay turganliklari tasvirlanadi.

Zambarak tubida men mudrar edim.
Toki tong otguncha eshitar edim
Faranglarning shod sasin.
Biroq bizning manzil ochiq, jim yotar,
Kimir majaq dubulg‘asin tuzatar,

Kimdir murtin chaynab, nayzasin artar,
Juda oshgan zardasi. (Lermontov, 1955: 17).

Bu parchada ikki xil manzara bor: birinchisi – fransuz askarlarining quvnoq kulgisi-yu ularning o‘z g‘alabasiga ishonchi; ikkinchisi – alamzada rus jangchilar. Jangchilar holatini berishda Lermontov qanday mahorat ko‘rsatgan bo‘lsa, G‘afur G‘ulom ham shu darajada mahorat bilan tarjima qilgan.

Lermontov o‘z qahramoni Amakini gapirtirar ekan, asar rivojiga xos yana bir personaj – komandir (polkovnik)ni ham olib kiradi. Bunda nutq ichida yana bir nutq paydo bo‘ladi. Komandirning o‘limi oldida aytgan gaplari asar boshidagi “sizlar botir emassiz” so‘zini to‘la quvvatlaydi.

G‘afur G‘ulomning tarjimonlik mahorati bu she’rda asosan urush lavhalarini chizishda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Вам не видать таких сражений!..
Носились знамена, как тени,
В дыму огонь блестел,
Звучал булат, картечь визжала,
Рука бойцов колоть устала,
И ядрам пролетать мешала
Гора кровавых тел. (Лермонтов, 2015: 4).

Qiyoslang:

Bunday jangni sizlar hech ko‘rmagaysiz!..
Bayroqlar soyaday ko‘chardi izsiz,
Yer-ko‘k tutun, olov...
Qurol-aslahalar, to‘plar ovozi,
Nayza sanchib tolmish el nayzabozni,
O‘lganlarning qonli tog‘day tanasi
O‘qlarga to‘sig‘-u g‘ov. (Lermontov, 1955: 17).

Urushning bu xil manzaralari o‘zbekchada ham nihoyatda tabiiy va aniq. Tarjimonning o‘zidan qo‘sghan ayrim so‘zlari parcha mantig‘iga, umumasar ruhiga xalaqit bermagan.

Bular tarjimonning, avvalo, shoir sifatidagi yuksak = badiiy mahorati, qolaversa, yuragidagi urushga qarshi qattiq nafrat ifodasidan kelib chiqqan yutuqlari. U urush yillari frontga necha martalab borgan, o‘zining otashnafas she’rlarini jangchilarga

o‘qib bergen va urushning birinchi kunlaridanoq shonli g‘alabaga komil ishonchni kuylab qalam tebratgan adiblardan edi. Tarjimonning bu hayotiy tajribalari bilan uning shoirlilik salohiyati qo‘silib, tarjima muvaffaqiyatiga muhim omil bo‘lgan.

She’rning: “Земля тряслась – как наши груди...” misrasida urushning haqqoniy, real manzarasini ko‘rish mumkin. Bu satrning mazmuni oddiy: “yer ko‘kraklarimizdek u yoqdan bu yoqqa borib keldi”. Lekin “**тряслась**” so‘zini lug‘atdagi “**qimirladi**” deb ham, “**tebrandi**” deb ham, “**silkindi**” deb ham o‘girib bo‘lmaydi. Bu vaziyatda lermontovcha tasvirdagi ifodaga erishish juda mushkul. Mutarjim esa ilojisini topadi – “**hansiradi**” deydi: “Yer ham hansiradi ko‘kragimizday...” Bu bilan tarjimon o‘quvchi ko‘z oldida jonli, real bir holatni aniq chizadi.

Ulkan tarjimon shoir hisoblangan G‘afur G‘ulomning mutarjim sifatidagi faoliyati yuzasidan qilingan kichik kuzatishlarimizning o‘ziyoq shuni ko‘rsatadiki, shoir doimo tarjimaga ijodiy yondashgan, ba’zi qalamkashlarday tarjimani ikkinchi darajali ish deb hisoblamagan. Buning zamirida esa mutarjimning tarjima qilinayotgan asar muallifi va asar mansub xalqqa bo‘lgan yuksak ehtiromi va hurmati yotadi. Zero, G‘afur G‘ulom-tarjimon duch kelgan asarni o‘giravermagan. Uning tarjimalari qandaydir bir manfaat uchun emas, balki ichki, ma’naviy va ruhiy ehtiyoj natijasi o‘laroq vujudga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Андроников, И. Лермонтов: исследования и находки. – М.: Художественная литература, 1977. – С. 650.
2. Lermontov, M. Y. Tanlangan asarlar: 1-jild. – T.: O‘zdavnashr, 1955. – B. 540.
3. Лермонтов, М. Избранные стихи. – М.: Детская литература, 2015. – С. 144.
4. Белинский, В. Г. Избранные статьи. – М.: Школьная литература, 1974. – С. 224.
224. Akbarov, A. Shoirning qalbi. – T.: Yosh gvardiya, 1968. – B. 224.